SAMARQAND VILOYATIDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINI SAQLAB QOLISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

F.F.Erkinova
SAMDAQU “Biznesni boshqarish” kafedrasi tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20272982

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Samarqand viloyatida joylashgan madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash jarayonida mavjud muammolar tahlil qilinadi, xalqaro tajriba asosida samarali yechimlar taklif etiladi hamda merosni saqlash tizimini modernizatsiya qilish yo‘nalishlari belgilab beriladi.*

Kalit so'zlar: *qayta tiklash, tarixiy yodgorliklar, konservatsiya, iqtisodiy infratuzilma, monumental san’at, UNESCO, tabiiy eroziya, monitoring tizimi.*

Kirish:O‘zbekiston Respublikasida madaniy meros obyektlarini asrash, ularni qayta tiklash va kelajak avlodga borligicha yetkazish masalasi davlat siyosatining bugungi kundagi eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda madaniy merosni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, tarixiy yodgorliklarni ilmiy asosda konservatsiya qilish hamda ularni turizm sohasi bilan uyg‘unlashtirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu ishlarni amalga oshirish borasida bir qator muhim huquqiy-hujjatlar qabul qilingan ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-martdagi “Madaniy merosni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PQ–89-son Qarori, 2023-yil 18-iyuldagi “Tarixiy shaharlarning me’moriy qiyofasini saqlash va turizm infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–144-son Qarori, hamda 2024-yil 10-yanvardagi PF–102-son Farmon bilan tasdiqlangani “Madaniy meros obyektlarini saqlash va ularni xalqaro turizm zanjiriga integratsiya qilish dasturi” ushbu sohadagi ishlarni yanada takomillashtirish va samarali boshqarishga asos bo’ladi.

Qabul qilingan Prezident qarorlarida madaniy meros obyektlarini saqlash, ularni qayta tiklash (restavratsiya qilish)da, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni joriy etish va turizm sohasi bilan bog‘lashning aniq mexanizmlari belgilab berilgan. Ushbu chora-tadbirlar madaniy merosni faqat ma’naviy boylik emas, balki iqtisodiy resurs sifatida ham ko‘rish, ya’ni turizm orqali hududni barqaror rivojlanish omiliga aylantirishga xizmat qilishi yo’llari asislab berilgan.

Lekin bugungi kunda amalda, madaniy meros obyektlarini saqlash jarayonida hali ham qator muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda. Jumladan, ayrim yodgorliklar iqlim sharoitlar ta’sirida yemirilmoqda, hududdagi moliyaviy va iqtisodiy infratuzilma cheklovlari sababli ayrim obidalar to‘liq qayta tiklash (restavratsiya) qilinmayapti. Tarixiy madaniy meros obyektlarining atrofida olib borilayotgan tartibsiz qurilish ishlari ularning asl me’moriy qiyofasiga zarar yetkazmoqda. Demak, hududda madaniy meros obyektlarini saqlab qolishni taminlash hududning rivojlanishida ham o‘z o‘rniga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida madaniy merosni saqlashning xalqaro standartlari hisoblangan **restavratsiya** (obyektning tarixiy ko‘rinishini tiklash) va **konservatsiya**

(mavjud holatni yanada yemirilishdan saqlab qolish va mustahkamlash) tushunchalari o‘rtasidagi farqlar inobatga olindi. Muallif yodgorliklarning asl me’moriy qiymatini saqlashda 'Veneziya xartiyasi' tamoyillariga tayangan holda, 'qayta tiklash' tushunchasini ilmiy restavratsiya kontekstida tahlil qiladi.

Taxlil va natijalar: Samarqand qadimdan Sharq sivilizatsiyasining markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu hududda shakllangan me’morchilik, san’at va ilmiy meros butun insoniyat tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bugungi kunda viloyatda 1576 ta madaniy meros obyektlari davlat ro‘yxatiga kiritilgan. Ularning 864 tasi — me’moriy, 573 tasi — arxeologik, 36 tasi — monumental san’at yodgorliklari, 103 tasi esa diqqatga sazovor joylar sifatida qayd etilgan. Shundan 43 tasi UNESCO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan (1-jadval).

1-jadval

Samarqand viloyatidagi madaniy meros obyektlarining turlari to’g’risida ma’lumot

Turi	**Obyektlar soni**	**Ulushi (%)**
Me’moriy yodgorliklar	864	55
Arxeologik yodgorliklar	573	36
Monumental san’at namunasi	36	2
Diqqatga sazovor joylar	103	7
Jami	**1576**	**100**

Manba: Samarqand viloyati Madaniy meros boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1- jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, viloyatdagi yodgorliklarning katta qismi me’moriy – 55 (%) foizi va arxeologik obidalar - 36 (%) foizini tashkil etmoqda. Bu holat Samarqandda tarixiy shaharsozlik, me’morchilik va san’at sohalarining qadimdan rivojlanganligidan dalolat berib turibdi.

Samarqand viloyatida madaniy meros ob’ektlarini asrashga ajratilayotgan mablag‘lar hajmi muntazam oshib bormoqda (2-jadval).

2-jadval

Samarqand viloyatida madaniy merosni saqlashga ajratilgan mablag‘lari to’g’risida ma’lumot

(mlrd so‘m)

Yil	Jami ajratilgan mablag’lar	Shu jumladan		
		Davlat byudjeti	Xalqaro grantlar	Xususiy sektor
2019	48,3	45,2	2,3	0,8
2020	54,3	50,1	3,0	1,2
2021	64,7	58,6	4,1	2,0
2022	76,5	67,4	5,6	3,5
2023	84,2	73,9	6,2	4,1
2024	90,4	78,0	7,4	5,0

Manba: Samarqand viloyati Madaniy meros boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mablag‘lar dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2019–2024-yillarda jami ajratilgan mablag‘lar 87,1% ga oshgan. Bu ko‘rsatkich mamlakatdagi o‘rtacha yillik inflyatsiya darajasidan

yuqori bo‘lib, sohaning real iqtisodiy o‘sishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, xususiy sektor ulushining 6 baravardan ziyod (0,8 mlrd so‘mdan 5,0 mlrd so‘mga) o‘sishi viloyatdagi turizm tushumlarining ortishi va madaniy meros obyektlarining investitsion jozibadorligi oshganligi bilan bevosita korrelyatsiya hosil qiladi. Xususiy sektor tomonidan 2020 yilda 1,2 mlrd so’m ajratilgan bo’lsa, 2024 yilda 5,0 mlrd so’m ajratilgan, bu 2020 yilga nisbatan mlrd so’m ko’p. Bu esa hududda iqtisodiy barqarorlik rivojlanib, viloyatda infratuzilma ham shakllanayotganidan dalolat berib turibdi.

Samarqand viloyatida madaniy meros ob’ektlarini asrash, qayta tiklash bo’yicha olib borilayotgah ishlarga qaramasdan bu sohani yanada rivojlantirishda kamchilik va muammolarga duch kelinmoqda (3-jadval).

3-jadval

Samarqand viloyatida madaniy meros obyektlarini saqlashdagi uchraydigan ba’zi mavjud muammolar va yechimlari to’g’risida ma’lunot

t/r	Muammolar	Kelib chiqish sababi	Ta’sir darajasi	Muammolarni yechim yo‘llari
1	Madaniy meros obyektlarining yemirilishi	Tabiiy eroziya (suv, shamol)	Yuqori	Doimiy monitoring va konservatsiya tizimini joriy etish
2	Saqlashda moliyaviy resurslarning yetishmasligi	Byudjet cheklovlari	O‘rta	Xalqaro grantlar va investorlarni jalb etish
3	Atrofdagi qurilish ishlarining tartibsiz olib borilayotganligi	Shaharsozlikdagi tartibsizlik	Yuqori	Himoya zonalarini yaratish va nazoratni kuchaytirish
4	Kadrlar yetishmasligi	Malakali restavratorlar tanqisligi	Yuqori	OTMlarda qayta tiklash (restavratsiya) yo‘nalishlarini kengaytirish
5	Tashrifchi (turist)larning madaniyati pastligi	Turizmda nazoratning sustligi	O‘rta	Axborot-ta’lim dasturlarini amalga oshirish

Bugungi kunda, Samarqand viloyatida 2025-yil holatiga 973 ta arxeologik, 564 ta me’moriy, 36 ta monumental va 34 ta diqqatga sazovor joylar mavjud bolib, shulardan 120 tasi yomon (ta’mirtalab) holatda ularni zudlik bilan qayta ta’mirlash (restavratsiya) ishlarini olib borish zarur. 2024-yilda esa 54 ta obyektda konservatsiya ishlari amalga oshirilgan.

Oxirgi yillarda Samarqand viloyatida madaniy meros obyektlarini saqlash va restavratsiya qilish sohasida muhim yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, amaliyotda hali ham tizimli muammolar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish masalasi nafaqat tarixiy merosni asrash, balki viloyatning turizm salohiyatini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va xalqaro nufuzini mustahkamlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallifning fikricha, madaniy merosni muhofaza qilish tizimida eng katta to‘siqlar moliyaviy resurslarning cheklanganligi, malakali kadrlar tanqisligi hamda texnik jihozlanganlik bugungi talabga javob bermasligi bilan bog‘liq (4-jadval).

4-jadval

2024 yil bo'yicha Samarqand viloyatida madaniy merosni saqlash tizimidagi asosiy muammolar ulushi to'g'risida ma'lumot



Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, tizimdagi eng og'ir nuqta — moliyaviy resurslar yetishmasligi (34%) bo'lsa-da, kadrlar tanqisligi (27%) ham deyarli shunga yaqin ko'rsatkichni tashkil etmoqda. Bu esa sohada faqatgina moliyaviy emas, balki intellektual investitsiyalarga ham ehtiyoj yuqori ekanligidan dalolat beradi. Ko'plab restavratsiya loyihalari cheklangan byudjet sharoitida amalga oshirilmoqda yoki umuman moliyalashtirilmayapti. Shuningdek, restavratsiya jarayonlarida zamonaviy texnologiyalar yetarli darajada qo'llanilmagani va nazorat mexanizmlarining sustligi ham yodgorliklarning sifatli saqlanishiga katta ta'sirini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda, Samarqand viloyatida restavrator, arxeolog, konservator va san'atshunos mutaxassislar soni kamchilikni tashkil etgani bois, aksariyat hollarda, bu soha mutaxassislarini Toshkent yoki Buxorodan jalb qilinmoqda, bu esa xarajatlarning ortishiga hamda ish muddatining cho'zilishiga olib kelmoqda.

Ko'plab obyektlarda restavratsiya ishlari asosan xalqaro grantlar va donor tashkilotlar ko'magida olib borilmoqda, mahalliy byudjet hisobidan amalga oshiriladigan loyihalar esa cheklangan hajmda, juda kam. Natijada ayrim obidalar uzoq muddat ta'mirlanishsiz qolib, yemirilish jarayoni tezlashmoqda.

Muallif tomonidan ilmiy tadqiqot olib boorish jarayonida bu muammolarni ba'zi echimlari bo'yicha takliflar keltirgan (5-jadval).

5-jadval

Samarqand viloyatida madaniy merosni saqlash tizimidagi asosiy muammolarning yechimlari bo'yich takliflar

t/r	Muammo	Amaldagi holat	Taklif etilayotgan yechim
1	Moliyaviy resurslarning cheklanganligi	Davlat byudjeti ulushi 60% dan oshmaydi	Xalqaro grantlar, xususiy sektor va homiylik mexanizmlarini kengaytirish
2	Kadrlar tanqisligi	Malakali restavratorlar soni 100 nafardan kam	SamDAQUda "Madaniy meros texnologiyalari" yo'nalishi bo'yicha maxsus yonalish ochish zarur

3	Texnik baza eskiligi	Restavratsiya asbob-uskunalari yetishmaydi	Yangi texnologiyalarni import qilish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish
4	Huquqiy-me'yoriy bazaning eskiligi	2001-yilda qabul qilingan qonun hali ham amal qiladi	"Madaniy meros to'g'risida"gi yangi qonunni ishlab chiqish
5	Monitoring tizimining sustligi	Obyektlar muntazam tekshiruvdan o'tmaydi	GIS texnologiyalari asosida raqamli monitoring tizimini joriy etish

Manba: Muallif tomonidan mavjud ma'lumotlar asosida tuzilgan.

5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun tizimli, kompleks yondashuv zarur. Avvalo, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, restavrator kadrlar tayyorlashni kuchaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va asosan mahalliy jamoa orasida tishuntirish olib borib, saqlash jarayoniga jalb etish zarur, bundan tashqari, Samarqand viloyatida madaniy meros, turizm va mahalliy iqtisodiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Har bir tarixiy obida atrofiga xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish, "mahalla – meros" modeli asosida aholining ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish lozim degan fikrdamiz.

Xulosa va takliflar: Samarqand viloyatida madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya qilish va ularni turizm sohasi bilan uzviy bog'lash borasida so'nggi yillarda sezilarli ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Davlat darajasida qabul qilingan Prezident Qaror va Farmonlari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyihalar ushbu yo'nalishda tizimli o'zgarishlar uchun mustahkam asos yaratilayotganlikdan dalolat berib turibdi.

Mazkur yuqoridagi o'rganilgan holatlarni bartaraf etish va madaniy merosni saqlash tizimini yanada takomillashtirish va samarali boshqarish maqsadida quyidagi **amaliy takliflarni ilmiy tadqiqotda keltirishni maqsadga muvofiq deb bildik**:

*1.**Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash: m**adaniy merosni saqlashni faqat davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish yetarli emas. Shu bois, xalqaro grantlar, xususiy homiylik, turizm daromadlari va donor tashkilotlar mablag'lari asosida ishlaydigan maxsus "Madaniy meros jamg'armasi"ni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

*2.**Kadrlar salohiyatini oshirish: v**iloyatda restavratorlar, arxeologlar va san'atshunos kadrlar yetishmasligini e'tiborga olib, Samarqand davlat universiteti va Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti negizida "Restavratsiya va madaniy meros texnologiyalari" bo'yicha ixtisoslashtirilgan ta'lim yo'nalishlarini ochish lozim.

***3.Raqamli monitoring tizimini joriy etish: b**archa madaniy meros obyektlari bo'yicha yagona raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish zarur. GIS texnologiyalari asosidagi "Smart Heritage" monitoring tizimi yodgorliklarning texnik holatini doimiy kuzatish, tahlil qilish va tezkor choralar ko'rish imkonini beradi.

*4.**Mahalliy jamoalarni jarayonga jalb etish:*** "Mahalla – meros" dasturini amalga oshirish orqali mahalliy aholining tarixiy obidalarni asrashdagi ishtirokini kengaytirish zarur.

*5.**Turizm va madaniy meros integratsiyasini rivojlantirish: t**arixiy obidalar atrofida turistik xizmatlar tarmog'ini kengaytirish, mehmonxona, (tarjimonlik) gidlik, hunarmandchilik va milliy gastronomiya xizmatlarini yo'lga qo'yish orqali yodgorliklarni saqlash jarayonini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mumkin.

*6.**Huquqiy-me'yoriy bazani yangilash:***2001-yilda qabul qilingan "Madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun bugungi talab va texnologik sharoitlarga javob bermayotganligini e'tiborga olib, yangi tahrirdagi qonun loyihasini ishlab chiqish va restavratsiya ishlarida yagona standartlarni belgilash zarur.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi Samarqand viloyatida madaniy merosni saqlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Natijada, tarixiy yodgorliklar nafaqat asrab-avaylanadi, balki ular mintaqaviy iqtisodiyot, turizm va ijtimoiy rivojlanishning barqaror omiliga aylanadi.

Umuman olganda, madaniy merosni asrab-avaylash — bu faqat o'tmish xotirasini saqlash emas, balki xalqning kelajakka bo'lgan mas'uliyatini ifodalovchi jarayondir. Shu bois, Samarqand viloyatida madaniy merosni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida ko'rilishi lozim degan fikrdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida. – Toshkent: 2001-yil 30-avgust, 269-II-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Madaniy merosni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida. – Toshkent: 2022-yil 15-mart, PQ–89-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Tarixiy shaharlarning me'moriy qiyofasini saqlash va turizm infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent: 2023-yil 18-iyul, PQ–144-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Madaniy meros obyektlarini saqlash va ularni xalqaro turizm zanjiriga integratsiya qilish dasturi to'g'risida. – Toshkent: 2024-yil 10-yanvar, PF–102-son.
5. UNESCO. Convention Concerning the Protection of the World Cultural and Natural Heritage. – Paris: 1972.
6. Samarqand viloyati Madaniy meros boshqarmasining 2019-2024 yillardagi hisobot va statistik ma'lumotlari.
7. Riegl, A. The Modern Cult of Monuments: Its Character and Its Origin. – Oppositions, 1982.
8. Ruskin, J. The Seven Lamps of Architecture. – London: Smith, Elder & Co., 1849.
9. Jokilehto, J. A History of Architectural Conservation. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 1999.
10. Amanbayev, A. Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilishning ilmiy asoslari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018.
11. G'ulomov, P.N. Samarqandning tarixiy-me'moriy merosi va turizmni rivojlantirish masalalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
12. Erkinova, F.F. Madaniy merosni boshqarishda raqamli texnologiyalar va monitoring tizimining roli. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2024.